

FRANSUZ TILI DARSIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH

Mirzayeva Dilfuza Ilhomjon qizi

4-kurs talabasi, Xorijiy Filologiya fakulteti

Mirzo Ulug`bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti.

Ilmiy rahbar: **Raximova Gulfiya Rustamovna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar va turli xil zamonaviy o'yinlar, innovatsion uslublar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: multimedia, zamonaviy pedagogik metodlar, rebus, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini baholash.

Annotation: This article discusses the methods used in teaching foreign languages in the educational system, as well as various modern games and innovative methods.

Keywords: multimedia, modern pedagogical methods, rebus, critical thinking, self-assessment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы, используемые при обучении иностранным языкам в образовательной системе, а также различные современные игры и инновационные методы.

Ключевые слова: мультимедиа, современные педагогические методы, ребус, критическое мышление, самооценка.

Kirish

Hozirda, mustaqil taraqqiyot yo'lida odimlab borayotgan mamlakatimizda ta'lim sifatini rivojlantirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lim sifati jarayonini jadallashtirish mobaynida unga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini tizimli jalb qilish hamda ta'lim sifat samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, ta'lim tizimida chet tillarini o'qitilishi keng miqyosda ommalashib bormoqda, nafaqat ta'lim tizimida balki turli sohalar rivojlanishining hozirgi bosqichida xorijiy tillarni bilish nafaqat zarurat, balki mutaxassislar uchun ham talabdir. Qayd etib o'tilganidek, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi

⁷⁴Chet tillarini o'qitishning ko'plab an'anaviy usullari mavjud bo'lib, ular juda samarali hisoblanadi. Biroq jamiyatning zamonaviy taraqqiyoti yanada ilg'or uslub va texnologiyalarni izlash va ulardan foydalanishni taqozo etadi. Bugungi kunda, bir nechta tillarni bilish odatiy holga aylanmoqda Shuningdek, biror bir chet tilini o'qitish uning metodikasining nazariy asoslariga tayanib amaliyotga tatbiq etishga bog'liqdir. Chunki chet tillarini o'rgatishda zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni judayam ahamiyatlidir. Talabalarga

⁷⁴ Павлова, Е. В. Инновационные методики обучения иностранным языкам / Е. В. Павлова, Н. А. Кобзева, И. С. Овчинникова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 12 (92). — С. 790-792

chet tillarini o'rgatishda eng samarali usullar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: multimedia taqdimoti, loyiha usuli, turli xil o'yinlar (rebus, tezkor savol javob, matnga sarlavha toping), interfaol dasturlarni onlayn sinovdan o'tkazish, interaktiv doskalar, multimedia dasturlari, keys usuli (vaziyatli o'qitish usullariga asoslangan), kompetensiyani tahlil qilish (o'yin ishtirokchilarini kompetensiyalar bo'yicha baholashni ifodalaydi, mutaxassislik bo'yicha professional profillarni qurish), masofaviy o'qitish va shunga o'xshash boshqalar

Biz aynan fransuz tilini o'qitilishida rebusli o'yinlardan foydalanish metodi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Rebus - bu bir yoki bir nechta tasvirdan to'liq jumla yoki so'zni taxmin qilishdan iborat bo'lgan o'yindir. Bunda bir nechta chizmalar yig'indisi bo'lishi mumkin, ular talqin qilingandan so'ng, jumla yoki so'zni topish uchun zarur bo'lgan bo'g'inlar beriladi yoki harflarning grafik joylashuviga asoslangan yoki hatto harflarning oddiy ketma-ketligiga asoslangan o'yin hisoblanadi.

Yuqoridagi jumboqli rebuslarimizning javoblari quyidagicha:

1. Le cartable- o'quvchi sumkasi
2. Le tableau- yozuv taxtasi
3. L'acteur- aktyor
4. La femme- ayol

Bu rebusli o'yinlar talabalarimizni fransuz tilida jumboqli leksikani taffakur qilgan holda topishlari va tezkorliklarini oshirishini, diqqatini jamlab fransuz tilida mulohaza yuritishlariga undaydi Bundan tashqari, fransuz tili o'qitishda grammatik mavzularni mustahkamlashda, yangi leksik birliklarni o'rganishda qo'llaniladigan "Jumlani davom ettiring" o'yini ham samarali hisoblanadi. Bu o'yinda talabalar guruhlariga ajralgan holda yoki yakka bo'lib ham o'ynashlari mumkin. O'yinni biz "Kelasi zamon" mavzusini mustahkamlanishini misol qilib oladigan bo'lsak, dastlab birinchi ishtirokchi yoki birinchi guruh a'zosi o'zini fikrini ifodalasa berilgan mavzuga tayanib, keyin ikkinchi ishtirokchi yoki ikkinchi guruh a'zosi fikrlar izchilligi asosida o'z fikrini bayon etishi mumkin

. I- Groupe : Demain matin, je me réveillerais à 7 heures. Après, je me laverai et je prendrai le petit déjeuner. Ensuite, le petit déjeuner, j'irai à l'école...

II- Groupe: La semaine prochain, nous partirons en vacances à Rome. Pendant le vacances nous visiterons aux lieux historiques de Rome..

⁷⁵. Til o'rganuvchilar, bu o'yin orqali sekinlik bilan gaplarning sintaktik va grammatik tuzilishlarini o'rganadilar, kichkina hikoyalar tuzishni va shular orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Biroq, o'qitishning innovatsion uslublari – bu nafaqat eng ilg'or texnologiyalarni darsda qo'llash yoki ta'lim sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan doimo xabardor bo'lish emas, balki ta'lim-tarbiya usullari hamdir. Bu talabalarga ko'proq e'tibor qaratadigan yangi o'qitish strategiyalaridan foydalanish haqida. Ushbu innovatsion kurslar talabalarni darslarda faol ishtirok etishga va tengdoshlari va o'qituvchi bilan muloqot qilishga undaydi. Talabalar qobiliyatlarini namoyon qila oladigan va bilimlarini tezroq o'sishiga yordam beradigan tarzda ko'proq ishlashlari kerak. Fransuz tilini o'rganishda o'yinlar ahamiyatli va samarali bo'lishi mumkin. O'yinlar o'quvchilarga darsda o'rganilgan materiallarni amalda o'rganish, so'zlar va ifodalarni yodlash, vaqt o'tkazish va ehtiyot bo'lishda yordam beradi.

Quyidagi asosiy ko'rinishlardagi o'yinlar Fransuz tilini o'rganishda o'quvchilarga yordam berishi mumkin:

⁷⁵ . www.ahaslides.com.

1. So'z topish o'yinlari: So'z topish o'yinlari yordamida o'quvchilar o'rganayotgan so'zlar va ifodalarni yodlab, ularning tilga amalda qo'llanishini o'rganishadi. Misol uchun, so'zlar ketma-ketlik yoki jadval ustida joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

2. Rol o'yinlari: Rol o'yinlari orqali o'quvchilar turli ma'suliyatlarni o'zlariga oladilar va o'zlarini amalda Fransuz tilida fikrlash va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun, restoran malikasi, turist yoki ma'mur bo'lish.

3. Krossvordlar va labirintlar: Krossvordlar va labirintlar o'quvchilarning lug'at va frazalarni o'rganishini va sinovlashini oshirishga yordam beradi. Bu o'yinlar arqoq so'zlar va ifodalarni o'rganish uchun qiziqarli va qulay bo'ladi.

4. Vokatsiyon o'yinlari: Vokatsiyon o'yinlari so'zlar va ifodalarni tinglovchi va ularni ishlatishga yordam beradi. Misol uchun, so'z va rasmlar ketma-ketligi, so'z ustida gapirish va shunga o'xshash o'yinlar.

5. Interaktiv darslar: Interaktiv darslar yordamida o'quvchilar o'rganishlarini sinovlash, yangi so'zlar bilan tanishish va o'quv qobiliyatlari o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu darslar o'quvchilarning darslarda o'rganilgan materiallarni amalda o'rganishini oshiradi.

O'yinlar o'quvchilarning Fransuz tilini o'rganishini qiziqarli, interaktiv va ko'p tomonlama qilishi mumkin. Bu o'yinlar o'quvchilarning darsda o'rganilgan materiallarni amalda o'rganishga, so'zlar va ifodalarni yodlashga va tillik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

⁷⁶O'rganilgan manbaalarga asosan quyidagi jihatlar talabalarning chet ma'lum bo'ldi. Berilgan savolni rag'batlantirish- innovatsion yondashuvlar asosida chet tillarini o'rganish o'quvchilarni yangi bilim va ko'nikmalarni oshirishga undaydi. Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish - ijodiy o'qitish usullari talabalarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi va ularni darsliklarda yozilgan javoblarni topish o'rniga muammoni hal qilishning yangi usullarini o'ylashga chorlaydi. O'z-o'zini baholashni takomillashtirish – o'qituvchilarning ajoyib usullari tufayli o'quvchilar nimani o'rganganlarini va nima yetishmayotganini tushunishlari mumkin. Hali ham bilishlari kerak bo'lgan narsalarni kashf qilish orqali ular nima uchun ma'lum narsalarni o'rganish kerakligini tushunishlari va shunga intilishlari mumkin Xulosa qilib aytganda, har bir o'qitilayotgan chet tilini qandaydir o'yinlar, usullar orqali amaliy yondashib o'rganish yoki o'rgatish samarali va oson hisoblanadi. Shu bilan birgalikda talabalarda chet tilni mukammal o'rganishda motivatsiyasini oshiradi. Ya'ni tizim asosida bosqichma –bosqich faoliyat olib boriladi. Bundan tashqari, hozirgi davrda til o'rganishdagi Yevropa ta'lim strandartlariga asoslangan kompetensiyalarni mukammal rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Павлова, Е. В. Инновационные методики обучения иностранным языкам / Е. В. Павлова, Н. А. Кобзева, И. С. Овчинникова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 12 (92). — С. 790-792.
2. Khasanova G. Problem-based learning technology //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – Т. 19. – С. 137-139.

⁷⁶ wwwfr.wikipedia.com

3. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
4. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
5. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
6. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
7. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
8. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
9. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
10. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
11. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
16. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
17. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.

18. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
19. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023)
20. ahaslides.com/fr/
21. [fr.wikipedia.](https://fr.wikipedia.org/)
22. rebuskids.ru/create-rebus